

**HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SOHASIDA
TALABALARING O'QUV-TANISHUV VA ISH O'RGANISH AMALIYOTI**

Aripova Aziza Xasanovna

TDYUU Ixtisoslashtirilgan filiali Umumta'lim fanlar kafedrasi mudiri, f.f.n., PhD
mumtozim@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida soha yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarning o'qish mobaynida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida tizimidagi vakolatli idoralarda o'quv-tanishuv va ish o'rganish amaliyotini o'tash haqida fikr-mulohaza bayon etilgan. Sohaning etuk mutaxassislari tomonidan ta'lim muassasalarida maxsus fanlar bo'yicha ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llanilishi hamda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishda fan va ta'lim faoliyatini integratsiyalashuvi xususida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlari: huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, soha, egallagan bilimlar, amaliy ko'nikma, ichki ishlar organlari, fan va ta'lim faoliyatini integratsiyalashuvi.

**УЧЕБНО-ОЗНОКОМИТЕЛЬНАЯ И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ПРАКТИКА СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ
ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ И ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

Арипова Азиза Хасановна,

Завкафедрой Общеобразовательных дисциплин Специализированного Филиала ТГЮУ, к.ф.н.,
PhD mumtozim@mail.ru

Аннотация: В данной статье анализируется процесс закрепления теоретических знаний молодых специалистов, проходящих учебно-ознакомительную и производственно-учебную практику в компетентных органах, которые путем практики закрепляют теоретические знания полученные в вузе. Рассмотрена и изучена информатика передовых специалистов отрасли по практическому применению теоретических знаний, полученных на лекциях по специальным дисциплинам в учебных заведениях, так же исследуется интегративная науки и образовательной деятельности в гармонизации теории и практики.

Ключевые слова: профилактика правонарушений, общественная безопасность, специализация, приобретаемые знания, практические навыки, органы внутренних дел, интегративная научной и образовательной деятельности.

**STUDENTS' TRAINING AND INDUSTRIAL PRACTICE IN THE FIELD OF CRIME PREVENTION AND
PUBLIC SAFETY**

Aripova Aziza Khasanovna

PhD on Philology, Associate Professor, Specialized Branch of Tashkent State University of Law, head of the Department of General Education Disciplines, mumtozim@mail.ru

Abstract: This article analyzes the process of reinforcing young specialists' theoretical knowledge who are undergoing educational-introductory and industrial training practice in the competent authorities who, through practice, consolidate the theoretical knowledge gained at the university. The information

of advanced industry experts on the practical application of theoretical knowledge obtained at lectures on special disciplines in educational institutions is considered and studied, and the integration of science and educational activities to converge theory and practice is also being researched.

Key words: crime prevention, public safety, specialization, acquired knowledge, practical skills, internal affairs bodies, integration of scientific and educational activities.

Barchamizga ma'lumki, ta'lim jarayonlarida nazariya va amaliyot uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filialida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga doir o'quv amaliyotini tashkil etish va Filial talabalarining amaliyotni o'tash tartibiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanishi bo'lg'usi soha mutaxassislarning bilimlarini mustahkamlash, ularga ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari faoliyatini o'rgatish maqsadidagi muhim bosqich sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldag'i "Huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4166-son qarorida belgilangan vazifalar hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 1-martdag'i "Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filialida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

14/4-109-8/7-son qarori ijrosini ta'minlash

maqsadida hamda Filial Ustavining 11-bandiga muvofiq Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filialining 1-kurs talabalari o'quv tanishuv amaliyotini, 2 va 3-kurs talabalari ish o'rganish amaliyotini Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va Toshkent viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi ixtiyorida o'taydilar. Filialning 1-kurs talabalari uchun o'quv tanishuv, 2 va 3-kurs talabalari uchun ish o'rganish amaliyoti Filial hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamkorligida ishlab chiqilib, tasdiqlangan dasturga muvofiq amalga oshiriladi.

Talabalar uchun o'quv-tanishuv va ish o'rganish amaliyotini tashkil etishda asosiy e'tibor ularda huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasi bo'yicha egallagan bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlash hamda ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi tuzilmalari faoliyati haqida amaliy tasavvurlar hosil qilishga asosiy e'tibor qaratiladi, bunda o'quv-tanishuv va ish o'rganish amaliyoti yakuni bo'yicha sinov imtihonlari o'tkazilib, natijalari ularning amaliyot va kasbiy stajirovka bo'yicha bilimlarini baholashda inobatga olinadi.

O'tkaziladigan amaliyotda talabalar ta'lim davrida olgan qonunchilikka oid nazariy bilimlarini mustahkamlab, tegishli ravishda amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987-tonli Farmonida bir qator vazirliklar bilan birga Oliy sudga ham nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan ma'ruzalar, mahorat darslari va o'quv seminarlarini o'tkazish uchun vazirlik va idoralarning amaliyot xodimlarini jalb qilish orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etishda TDYuU, TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali va yuridik texnikumlarga doimiy ravishda har tomonlama ko'maklashish vazifasi yuklatilgan. Shu o'rinda Filial talabalariga o'quv mashg'ulotlari davomida professionallardan mahorat darslari, binary trening va o'quv seminarlar tashkillashtirilib, talabalar o'z sohalari yuzasidan tegishli bilimga ega bo'lishdi.

Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishda fan va ta'lim faoliyatini integratsiyalashuvidan ko'zlangan asosiy maqsad – amaliy ko'nikmalar asosida ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, sohani etuk kadrlar bilan ta'minlash, oliy ta'lim bosqichida tahsil olayotgan talablarning tayyorlash sifatini oshirish, talablarni ilmiy rahbar boshchiligidagi amaliyotda o'zlashtirgan yangi bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda ilmiy-tadqiqot faoliyatini dastlabki tarzda olib borishga jalg qilishdan iborat.

Bugungi kunda xorijiy ta'lim yo'nalishlari yutuqlarini, ya'ni qator akademik ilmiy muassasalarini universitetlar ixtiyoriga berish va hamkorlikda foydalaniladigan oliy ta'lim muassasalararo zamonaviy kampus ilmiy laboratoriya majmularini tuzish hisobidan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash va innovatsion faoliyatga asoslangan o'quv jarayonini integratsiyalashtirish hozirgi bosqichda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida fan va ta'lim faoliyatini integratsiyalashuvi jamiyatimiz hayotidagi quyidagi muhim vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi:

- 1) ta'lim jarayonini sifatini oshirish, amaliy bilimlarni egallash va ilmiy tadqiqot faoliyatida qatnashishga tayyor bo'lgan hamda ilm-fanning so'ngi yutuqlaridan xabardor bo'lgan ilmiy-analitik kadrlarni tayyorlash;
- 2) iqtidorli yoshlarni fan va ta'lim jarayoniga jalg qilish va ularni faol ishtirokini ta'minlash;
- 3) fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish jarayoniga ajratilgan davlat byudjeti, oliy ta'lim muassasalarini mablag'laridan samarali foydalanish orqali sifatli ilmiy kadrlarni tayyorlash;
- 4) soha yo'nalishi va tarmoqlari bilan fan va ta'lim aloqalarini yanada kuchaytirish;
- 5) fan va ilmiy-tadqiqot yutuqlarini soha faoliyatiga keng jalg qilish orqali tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va boshqalar.

Nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida fan va ta'limning samarali integratsiyalashuvi uchun sohaviy munosabatlar va qonun ustuvorligi zarurat sifatida talab qilinadi. Mazkur munosabatda OTM asosiy ishtirokchi sifatida namoyon bo'lib, integratsiya jarayoni qatnashchilarini huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Ta'limda nazariya va amaliyotda olingan bilimlarning integratsiyalashuvi, eng avvalo, bosqichma-bosqich ravishda o'quv mazmuniga ta'sir qilib, uning standartlariga yagona talablarni joriy qilishda zamonaviy texnologiyalardan va ilmiy-tadqiqot loyihalari natijalaridan foydalanish darajasi bilan chambars bog'liqdir.

Yuqorida mulohazalardan kelib chiqib, nazariya va amaliyot uyg'unligini o'quv jarayonida yuzaga keladigan aniq muammolarni ko'rsatib, ta'limdagи bo'shliqlarni bartaraf etadi, talabalarning ijodiy loyihalashga yo'naltirib, mehnat sarfini kamaytiradi, zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar shakillanishi va kompetensiyalar rivojlanishi sifat va samaradorligini oshiradi, amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish imkonini beradi, ilmiy bilimlarga qiziqishni orttiradi.

Foydalanilfgan adabiyotlar:

- 1.Huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlashda fukarolik konunchiligi konsepsiysi asosida faoliyat // A.Aripova, 2020.
- 2.THE ROLE OF COMMUNICATION CULTURE IN THE FIELD OF CRIME PREVENTION AND PUBLIC SAFETY // 2022.
- 3.ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ҲАМДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ СОҲАСИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ // 2021.

4.Huquqbuzarlik profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiysi asosida ish yuritish // A.Aripova, 2020.

5.BO'LAJAK MUTAXASSISNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM METODLARI TA'SIRI // EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.3 | SJIF = 5.961 www.in-academy.uz // 2022.